

**KOMPOZITSION TARZDA HOSIL BO'LGAN TURKIZMLAR:
INGLIZ TILIDAGI STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATLARI**

Charos Ismoilova Shuhrat qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM Samarqand kampusi

ingliz tili o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Charosismoilova180@gmail.com

Annatsiya: maqolada ingliz tiliga o'zlashgan kompozitsion turkizmlarning morfologik va semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot turkiy tillarga xos ot+ot, sifat+ot, ot+affiks+ot kabi yasaliş modellarining ingliz tilida qanday leksiklashgani va terminologik barqarorlashgani masalasiga qaratilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, kompozitsion turkizmlar ingliz tilida ichki morfologik segmentatsiyaga uchramagan holda tarixiy-madaniy termin sifatida mustahkamlangan. Tadqiqotda etimologik, qiyosiy va struktur-semantik yondashuv qo'llanildi.

Kalit so'zlar: turkizm, kompozitsion birlik, o'zlashma, morfologiya, etimologiya, leksiklashuv, terminologiya.

Kirish. Turkiy tillarning Yevroosiyo hududidagi ko'p asrlik siyosiy, harbiy va madaniy faoliyati natijasida turkizmlar ko'plab tillarga, jumladan ingliz tiliga ham kirib kelgan. Ayniqsa, Usmonli davri, Markaziy Osiyo va Qrim bilan bog'liq tarixiy jarayonlar ingliz leksikasida qator ijtimoiy-siyosiy, etnik va madaniy terminlarning shakllanishiga sabab bo'lgan (Golden, 1992).

Kompozitsion turkizmlar — ichki jihatdan turkiy morfologik modellarga asoslangan, biroq ingliz tilida tayyor nominativ birlik sifatida qabul qilingan leksik birliklardir. Masalan, Janissary (yeni + çeri), Kizilbash (kizil + baş) yoki Doner kebab (döner + kebab) kabi birliklar ingliz tilida ichki komponentlarga ajratilmaydi, balki tarixiy-madaniy termin sifatida qo'llanadi.

Turkizmlarning fors va tojik tillaridagi moslashuvi G. Doerfer tomonidan izchil o'rganilgan bo'lib, u turkiy elementlarning boshqa tillarda morfologik qayta talqin qilinmasdan leksiklashishini ko'rsatadi (Doefer, 1963–1975). Ingliz tilidagi holat ham shunga yaqin xususiyatga ega.

Tadqiqot quyidagi metodlarga asoslandi:

1. Etimologik tahlil – turkizmlarning qadimgi turkiy ildizlari va yasaliş modellari aniqlanadi (Clauson, 1972).
2. Qiyosiy-tarixiy yondashuv – turkiy, fors va ingliz tillaridagi moslashuv jarayoni taqqoslandi (Doefer, 1963).
3. Struktur-semantik tahlil – birliklarning ichki modeli va ingliz tilidagi funksional maqomi o'rganildi.
4. Diskursiv tahlil – tarixiy va ilmiy matnlardagi qo'llanish konteksti ko'rib chiqildi.



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

Empirik material sifatida tarixiy lug'atlar, etimologik manbalar va zamonaviy ingliz matnlari asos qilib olindi.

Natijada ijtimoiy-siyosiy kompozitsiyalarga *ot+ot* yoki *sifat+ot* modeli asosida yasalgan birliklar qadimgi turkiy harbiy va ma'muriy tizimni aks ettiradi:

“Janissary” – yeni (“yangi”) + çeri (“askar”)

“Bashi-bazouk” – baş + bozuk

“Cossack” – qazaq (erkin jangchi)

“Kizilbash” – kizil + baş

Mazkur birliklar ingliz tilida tarixiy termin sifatida qo'llanadi va ichki morfologik segmentatsiya qilinmaydi.

Rang + ot modeli asosidagi etnik va geografik nomlarga kelsak, turkiy tillarda rang komponenti mahsuldor model hisoblangan (Clauson, 1972). Masalan:

“Karabakh” – qara + bağ

“Crimean Tatars”

“Black Sea”

Bu birliklar ingliz tilida kompozitsion emas, balki tayyor toponimik yoki etnonimik nom sifatida qabul qilinadi.

Gastronomik kompozitsiyalar turkiy oshxona terminlari sifatida ingliz tilida madaniy marker sifatida faol ishlatiladi:

“Shish kebab”

“Doner kebab”

“Imam bayildi”

Ular ko'pincha uch komponentli gibril shakllarda (masalan, **“chicken doner kebab sandwich”**) uchraydi va ingliz tilida semantik jihatdan bo'linmas birlikni tashkil etadi.

Ko'p komponentli tarixiy birliklar esa tarixiy diskursda uchraydigan kengaytirilgan kompozitsiyalar:

“Ottoman Empire”

“Seljuk Empire”

Bu birliklar ingliz tilida aniqlovchi komponentlar bilan kengaytirilgan turkizmlar hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kompozitsion turkizmlar ingliz tilida ikki bosqichli moslashuvdan o'tgan:

Fonetik-grafik moslashuv (yeniçeri → janissary)

Leksiklashuv va terminologik barqarorlashuv

Doerfer (1963) qayd etganidek, turkiy elementlar boshqa tillarga o'tganda ko'pincha ichki morfologik shaffofligini yo'qotadi. Ingliz tilida ham xuddi shunday jarayon kuzatiladi.

Golden (1992) turkiy siyosiy terminlarning Yevroosiyo tarixidagi roli haqida so'z yuritarkan, ularning lingvistik barqarorligi tarixiy nufuz bilan



bog'liqligini ta'kidlaydi. Shuningdek, A. Madvaliev (1991) qo'shma terminlar asosan ot turkumida shakllanishini ko'rsatadi. Ingliz tilidagi kompozitsion turkizmlar ham aynan ot turkumida mustahkamlanganligi bilan ushbu nazariy xulosani tasdiqlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ingliz tiliga o'zlashgan kompozitsion turkizmlar struktur-semantik jihatdan yaxlit, leksiklashgan terminlar hisoblanadi. Ular turkiy morfologik modellar asosida shakllangan bo'lsa-da, ingliz tilida ichki segmentatsiyaga uchramaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Clauson, G. (1972). An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish. Oxford: Clarendon Press.
2. Doerfer, G. (1963–1975). Türkische und mongolische Elemente im Neupersischen. Wiesbaden.
3. Doerfer, G. (1967). Türkische Lehnwörter im Tadschikischen. Wiesbaden.
4. Golden, P. B. (1992). An Introduction to the History of the Turkic Peoples. Wiesbaden: Harrassowitz.
5. Johanson, L., & Csató, É. (1998). The Turkic Languages. London: Routledge.
6. Lewis, G. (2002). The Turkish Language Reform. Oxford University Press.
7. Madvaliev, A. (1991). O'zbek tilida qo'shma terminlar. Toshkent.
8. Ibrohimov, S. (1959). O'zbek tilida qo'shma so'zlar. Toshkent.
9. Tursunova, T. (1978). Hozirgi o'zbek tilida termin yasash masalalari. Toshkent.
10. Abdiev, A. (2005). O'zbek terminologiyasining struktur xususiyatlari. Toshkent.

